

**SEYSMOLOGIYA INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**

**DSc.02/30.12.2019. GM/FM.97.01 RAQAMLI ILMUY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMUY KENGASH**

SEYSMOLOGIYA INSTITUTI

SADIROV FERUZ XASANOVICH

**ZILZILALARNI PROGNOZLASHDA GEOFIZIKAVIY AXBOROT
TEXNOLOGIYALARINI ISHLAB CHIQISH**

04.00.06 - «Geofizika. Foydali qazilmalarni qidirishning geofizik usullari»

**texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent-2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Sadirov Feruz Xasanovich Zilzilalarni prognozlashda geofizikaviy axborot texnologiyalarini ishlab chiqish....3	
Садиров Феруз Хасанович Разработка геофизических информационных технологий при прогнозировании землетрясений	21
Sadirov Feruz Khasanovich Development of geophysical information technologies for earthquake forecasting.39	
E’lon qilingan ishlar ro‘yxati Список опубликованных работ List of published works	42

**SEYSMOLOGIYA INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**

**DSc.02/30.12.2019. GM/FM.97.01 RAQAMLI ILMUY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMUY KENGASH**

SEYSMOLOGIYA INSTITUTI

SADIROV FERUZ XASANOVICH

**ZILZILALARNI PROGNOZLASHDA GEOFIZIKAVIY AXBOROT
TEXNOLOGIYALARINI ISHLAB CHIQISH**

04.00.06 - «Geofizika. Foydali qazilmalarni qidirishning geofizik usullari»

**texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent-2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.PhD/T4405 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Seysmologiya institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.seismos.uz) va «ZiyoNet» axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Xusomiddin Sabriddin Samarovich
fizika-matematika fanlari doktori

Rasmiy opponentlar:

Djumanov Jamoljon Hudayqulovich
texnika fanlari doktori

Kuchkarov Kaxramon Israilovich
fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot:

O'zbekiston Milliy universiteti

Seysmologiya instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/30.12.2019.GM/FM.97.01
raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy kengashning 2025 yil «9» dekabr soat «10⁰⁰» dagi
majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100128, Toshkent shahri, Zulfiyaxonim ko'chasi, 3 uy. Tel.: (+99871)
241-51-70, E-mail: seysmologiya@seismos.uz).

Dissertatsiya bilan Seysmologiya institutining Axborot-resurslar markazida tanishish mumkin
(1159-raqam bilan ro'yxatga olingan) (Manzil: 100128, Toshkent shahri, Zulfiyaxonim ko'chasi, 3 uy.
Tel.: (+99871) 241-51-70, E-mail: seysmologiya@seismos.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «25» noyabrdagi tarqatildi.

(2025 yil «25» noyabrdagi 18 raqamli reestr bayonnomasi)



S.X. Maksudov

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash asosidagi bir martalik
ilmiy kengash raisi, f.-m.f.d., prof.

Z.F. Shukurov

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash asosidagi bir martalik
ilmiy kengash ilmiy kotibi, g.-m.f.f.d. (PhD)

V.A. Ismailov

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash asosidagi bir martalik
ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, g.-m.f.d., prof.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon amaliyotida zilzilalarni prognozlash, seysmik xavfni baholash va zilziladan ko'rildigan talafotlarni kamaytirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bunda, zilziladan oldin sodir bo'ladigan geofizik anomaliyalarning fizik tabiatini tadqiq etishga, yer qobig'ining kuchlanganlik-deformatsion holatini baholashga, seysmik jarayonlarning geofizik maydonlarda namoyon bo'lish qonuniyatlarini o'rganishga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Geologik-geofizik ko'rsatkichlarni real vaqt rejimida kuzatish, tahlil qilish va ularga asoslangan zamonaviy onlayn monitoring tizimlari va axborot texnologiyalarini ishlab chiqish zilzilalarni uzoq, o'rta, qisqa muddatlarda prognoz qilish tadqiqotlarini takomillashtirish imkonini beradi.

Dunyo miqyosida, xususan, AQSh, Yaponiya, Xitoy, Rossiya, Italiya, Germaniya kabi rivojlangan davlatlarda zilzilalarni prognozlashda geologik-geofizik kuzatuv tizimlaridan foydalanish, seysmik jarayonlarni real vaqt rejimida monitoring qilish hamda yer qobig'ining deformatsion holatini modellashtirish bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. Zamonaviy axborot texnologiyalari asosida ishlab chiqilayotgan prognozlash tizimlari favqulodda vaziyatlar yuzaga kelishidan oldin aholini tezkor ogohlantirish, evakuatsiya choralarini va transport-kommunikatsiya infratuzilmalarini himoya qilish kabi amaliy xavfsizlik choralarini samarali tashkil etishga xizmat qilmoqda. Bugungi kunda raqamlashtirish yo'nalishida yaratilayotgan monitoring klasterlari, raqamli ma'lumotlarni qayta ishslash algoritmlari va prognozlash dasturiy modullarini ishlab chiqishga alohida ahamiyat berilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi hududining katta qismi seysmik faol zonalarda joylashganligi, bu faol hududlarda kuchli zilzilalar sodir bo'lganda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan iqtisodiy va ijtimoiy yo'qotishlar xavfini kamaytirish masalasi hududlarning jadal o'zlashtirilishida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Uzoq, o'rta va qisqa muddatli zilzila darakchilarini aniqlash, geofizik maydon parametrlarining fazoviy-vaqt bo'yicha o'zgarishlarini tahlil qilish, seysmoprogностик kuzatuv tarmoqlarini modernizatsiya qilish va monitoring tizimlarini zamonaviy raqamli axborot texnologiyalari asosida takomillashtirish respublika miqyosida olib borilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022–2026 yillarda yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"¹gi PF-60-sonli Farmonida, jumladan "...ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish, shahar va tumanlarda ekologik ahvolni yaxshilash..." vazifalari belgilab berilgan. Shu munosabat bilan zilzilalarni prognozlashda geofizikaviy axborot texnologiyalarini ishlab chiqish seysmik xavfsizlik sohasini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026 yillarda yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 9 avgustdag‘i “Seysmologiya, seysmik chidamli qurilish hamda O‘zbekiston Respublikasi aholisi va hududining seysmik xavfsizligi sohasida ilmiy tadqiqotlar olib borishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3190-son Qarori, 2020 yil 30 iyuldag‘i «O‘zbekiston Respublikasi aholisi va hududining seysmik xavfsizligini ta‘minlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4794-son Qarori, 2023 yil 16 maydag‘i “O‘zbekiston Respublikasi aholisi va hududining seysmik xavfsizligini ta‘minlash tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-158-son Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Ushbu tadqiqot Respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning “Yer haqidagi fanlar (geologiya, geofizika, seysmologiya va mineral xomashyoni qayta ishslash)” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darjasи. Keng ko‘lamdag‘i zilzila darakchilarini izlash, prognoz qilishga oid izlanishlar Xitoy, sobiq SSSR, Yaponiya, AQSh va boshqa davlatlar tomonidan o‘tgan asrning ikkinchi yarmidan amalga oshirila boshlandi. Ushbu mamlakatlarning olimlari tomonidan muammoning dolzarb masalalarini hal qilish yechimlari o‘rtaga tashlangan. Geofizik, gidrogeologik, geodinamik va boshqa maydonlarning zilzilaga sezuvchan parametrlari va uzoq, o‘rta muddatli zilzila darakchilarini izlash uslubiyati hamda zilzilaning tayyorlanishi to‘g‘risidagi modellarni ishlab chiqishda quyidagi olimlar katta hissa qo‘sishgan: C.Y. King, V. Corouff, P.M. Davis, J.S. Derr, F. Lafeuvre, J. Milne, T. Nagata, M. Parrot, F.D. Stasy, O.M. Barsukov, I.N. Vasilev, A.A. Vorobev, G.A. Gambursev, V.P. Golovkov, M.B. Goxberg, I.L. Gufeld, I.P. Dobrovolskiy, I.G. Kissin, V.A. Morgunov, V.I. Myachkin, A.V. Ponomarev, O.A. Poxotelov, T. Rikitake, M.A. Sadovskiy, A.Ya. Sidorin, Yu.P. Skovorodkin, G.A. Sobolev, V.I. Ulomov, K.N. Abdullabekov, V.N. Yakovlev, S.X. Maksudov, S.S. Xusomiddinov, A.I. To‘ychiev, A.R. Yarmuxamedov va boshqalar.

Izlanishlar davomida mutaxassislar tomonidan geofizik, gidrogeologik, geodinamik maydonlarning ko‘pchilik parametrlarining zilzilaning tayyorlanish jarayoniga sezuvchan ekanligi aniqlangan. Olimlar izlanishlar mobaynida ilgari ma‘lum bo‘lman tabiat hodisalarini aniqladilar: “Zilzila oldidan tog‘ jinslari qarshiligining anomal o‘zgarishlari” (Barsukov O.M.), “Zilzilalar oldidan va ularga hamroh bo‘lgan davrlarda yer osti suvlarining kimyoviy va gaz (elementlar va izotoplar) tarkibidagi o‘zgarishlar” o‘zgarishi” (Mavlonov G.A. va boshq.). Olingan bilimlar natijasida zilzila tayyorlanishining bir qator modellari yaratildi hamda zilzilani prognoz qilishda bir qator aniq natijalarga erishildi. O‘zbekistonda zilzila darakchilarining fazo-vaqt bog‘liqlik qonuniyatlarini aniqlash uchun uchta geodinamik poligon tashkil qilingan. Hozirgi kunda shu sohadagi tadqiqot ishlarini

zamonaviy darajada olib borish uchun axborot texnologiyalaridan keng foydalanish talab etiladi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog'liqligi.

Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Seysmologiya instituti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Yer qobig'inining kuchlanganlik-deformatsion holatini statsionar va dala kuzatuv ishlari orqali monitoring tizimini yaratish. Seysmik tomografiya va seysmik profillash usullari bilan seysmogen zonalarning ichki tuzilishini o'rganish texnologiyasini ishlab chiqish" (2018-2020 yy.) va "O'zbekiston hududida zilzila kompleks darakchilarining takomillashgan monitoring tizimini ishlab chiqish" (2021-2023 yy.) mavzularidagi amaliy loyihamo bo'yicha bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi geologik-geofizik ko'rsatkichlar asosida real vaqt rejimida o'rta va qisqa muddatlar uchun zilzila sodir bo'lish ehtimolini baholashning geofizikaviy axborot texnologiyasini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

O'zbekiston geodinamik poligonlarida olib borilayotgan geofizik, geodinamik, gidrogeoseysmologik kuzatuvlarning ma'lumotlar bazasini (MB) yaratish;

geodinamik va magnitometrik kuzatuvlarni hamda kuzatuv ma'lumotlarini yig'ishni avtomatlashtirish;

geodinamik, magnitometrik, gidrogeoseysmologik va seysmoligik ma'lumotlar orqali o'rta va qisqa muddatli zilzila darakchilarini aniqlash algoritmi va dasturiy ta'minotini yaratish.

Tadqiqotning ob'ekti Toshkent, Farg'ona va Qizilqum geodinamik poligonlari.

Tadqiqotning predmeti geologik-geofizik ko'rsatkichlar majmuasini tadqiq etishda foydalanilgan zamonaviy axborot texnologiyalariga asoslangan monitoring tizimlari hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Geologik-geofizik ko'rsatkichlarni monitoring qilish usullari, jumladan elektrometriya, magnitometriya, GNSS, retrospektiv ma'lumotlarni raqamli qayta ishlash, regressiya va korrelyatsion bog'lanishlarni aniqlash usullaridan, spektral tahlil qilishda R matematik-statistik dasturiy muhiti, hamda Matlab, Mezozavr dasturlaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

geologik-geofizik ko'rsatkichlarni monitoring qilish klasterining raqamli apparat-dasturiy majmuasi yaratilgan, shu asosida zilzila darakchilarini aniqlashning geofizikaviy axborot texnologiyalari ishlab chiqilgan;

real vaqt rejimida seysmoprogностик kuzatuv ma'lumotlarini avtomatlashtirilgan tarzda yuboruvchi va qabul qiluvchi "Magnetic data transmission GEM-19T" dasturi hamda ma'lumotlarni qayta ishlovchi "DataVisualizer" dasturiy ta'minoti ishlab chiqilgan;

seysmoprognostik kuzatuv ma'lumotlarini saqlovchi, boshqaruvchi, tahrirlovchi "Geoseysmo" ma'lumotlar bazasi va bilimlar bazasi yaratilgan hamda ularni o'zaro bog'lovchi algoritmlar ishlab chiqilgan;

spektral tahlil, kuzatuv ma'lumotlarini chastotali filtrlash, geomagnit maydon komponentalari va gravitasiya ta'siridagi davriy o'zgarishlarda yer qobig'inining deformatsion darakchilari baholangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

kuzatuv ma'lumotlarini boshlang'ich qayta ishlovchi, uzilishlarni tiklovchi va trendlarni filtrlaydigan dasturiy ta'minot yaratilgan;

GPS kuzatuv nuqtalarining global joylashuvini aniqlash usulini qo'llash asosida yer qobig'inining zamonaviy harakatlari baholangan;

ma'lumotlarni yig'ish, saqlash, dastlabki ishlov berish va ma'lumotlarni yig'ish markaziga avtomatlashtirilgan onlayn rejim shaklida uzatish uchun qurilma va dasturiy ta'minot ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliliga ikki amaliyot bilan erishildi. Birinchisida asbob uskunalarni metrologik tekshirish O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Fizika-texnika instituti bilan birgalikda ishlab chiqilgan maxsus stend orqali amalga oshirildi. Ikkinchisida retrospektiv seysmofaol vaqt oraliqlari materiallari bo'yicha tadqiqot natijalari bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati seysmik jarayonlar dinamikasini axborot texnologiyalari vositasida modellashtirish orqali zilzila darakchilarini aniqlash, geologik-geofizik ko'rsatkichlarni statistik va spektral tahlil qilish, ularning o'zaro korrelyatsion bog'liqligini aniqlashda ma'lumotlar bazasi va algoritmlar yaratilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati O'zbekiston hududlarida kutilayotgan zilzilalarning qisqa, o'rta va uzoq muddatli darakchilarini aniqlash uchun qurilma, algoritm, dasturiy ta'minot hamda ma'lumotlar bazasi ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Zilzilalarni prognozlashda geofizikaviy axborot texnologiyalarini ishlab chiqish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

zilzilalarni prognozlashda geomagnit maydon, elektromagnit impuls, elektrotellurik maydon ma'lumotlarini yig'ish, ma'lumotlar markaziga yuborish va ma'lumotlar bazasida saqlashning avtomatlashgan axborot tizimi "Magnetic data transmission GEM-19T", "Seismoweb", "DataVisualizer" dasturiy ta'minotlar va "Geoseysmo" ma'lumotlar bazasi Seysmoprognostik monitoring Respublika markaziga joriy etilgan (Favqulodda vaziyatlar vazirligining 2025 yil 14 yanvardagi № 2/4/36-103-soni ma'lumotnomasi). Natijada, kuzatuv ma'lumotlarini yig'ish, saqlash, dastlabki ishlov berish va ma'lumotlarni Seysmoprognostik monitoring Respublika markaziga avtomatlashtirilgan onlayn rejimda uzatish imkonini bergen;

geofizik, geodinamik, gidrogeoseysmologik va global pozisiyalash kuzatuv ma'lumotlari tahlili asosida zilzila darakchilarini aniqlash algoritmi va dasturiy ta'minoti Seysmoprogностик monitoring Respublika markaziga joriy etilgan (Favqulodda vaziyatlar vazirligining 2025 yil 14 yanvardagi № 2/4/36-103-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, kuchli zilzilalarni prognozlashda darakchilarni tezkor aniqlash imkonini bergen;

kompleks kuzatuv ma'lumotlarini dastlabki qayta ishlovchi, uzilishlarni tiklovchi va trendlarni filtrlovchi "DataVisualizer" dasturiy ta'minoti Seysmoprogностик monitoring Respublika markaziga joriy etilgan (Favqulodda vaziyatlar vazirligining 2025 yil 14 yanvardagi № 2/4/36-103-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, ishlab chiqilgan dasturiy ta'minot kuchli zilzilalarni prognozlash samaradorligini oshirish imkonini bergen.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya ishining asosiy natijalari 2 ta xalqaro va 4 ta Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda ma'ruza qilinib muhokamasi amalga oshirildi.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusiga oid jami 16 ta ilmiy ishlar nashr etilgan, jumladan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 5 ta maqola, shu jumladan, 1 ta xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan. O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk Agentligidan ma'lumotlar bazasi va dasturiy taminotlar uchun 5 ta avtorlik guvohnomasi olingan.

Dissertatsyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsyaning umumiyligi 108 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida olib borilgan tadqiqotning dolzarbliji va unga bo'lgan talab, tadqiqot maqsadi hamda vazifalari asoslangan, tadqiqot obyekti, predmeti tavsiflangan. Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga muvofiq kelishi ko'rsatilgan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, ularning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyatga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar bo'yicha ma'lumotlar hamda dissertatsiya tuzilishi keltirilgan.

Dissertatsyaning «**Zilzilalarning prognozlash muammosi bo'yicha izlanishlarning hozirgi holati**» deb nomlangan birinchi bobida zilzilani prognozlash bo'yicha jahon ilm-fani natijalarining tahlili sharhi, mamlakatimiz olimlarining bu sohadagi amalga oshirgan ishlari, yer qobig'idagi kuchlanish va deformatsyaning asosiy manbalari, kuchlanagan-deformatsiyalangan holatni baholash metodikasi, zilzila o'chog'i mexanizmi va hududning seysmikligini kuzatuvlari natijalariga asoslanganligi yoritilgan. Kuchlangan-deformatsiyalangan holatni monitoring qilish va baholash hamda o'zgarishlarning monitoringi geofizikaning eng qiyin masalalaridan biri ekanligi asoslangan. Mamlakatimiz

hududidagi mavjud geodinamik poligonlar to‘g‘risida qisqacha ma’lumotlar berilgan.

GPS tizimi asosida kuzatuv nuqtalarining global joylashuvini aniqlash usullari, uning O‘zbekistonda qo‘llanilishi, olingan ma’lumotlarni qayta ishslash, GPS tayanch stansiyalar global sun’iy yo‘ldosh navigatsiya tizimi to‘g‘risidagi ma’lumotlar keltirilgan.


Mavjud geodinamik poligonlar seysmik faolligining yuqoriligi va mintaqaning geologik, geofizik hamda seysmotektonik sharoitlarining batafsil o‘rganilganligi seysmik prognozlashni osonlashtirsa, murakkab geologik-tektonik tuzilish, blokli tuzilmalar uni qiyinlashtiradi. GPS tizimiga asoslangan kuzatuv nuqtalarining global joylashishni aniqlash usulidan foydalangan holda monitoring uchun o‘lchash intervallarini qisqartirish zarurligi ta’kidlangan.

Dissertatsiyaning «**Seysmoprognostik monitoring tizimining tuzilishi**» deb nomlangan ikkinchi bobida monitoring vazifasining mohiyati, uning apparat-dasturiy ta’minoti ko‘rsatib o‘tilgan. Zilzilalarni proqnoz qilishda geofizik, geodinamik, va gidrogeoseysmologik ma’lumotlar kompleksidan foydalaniladi.

Monitoring tizimining klaster shaklida tuzilishi, ishslash printsiplari tavsiflangan. Xalqaro va mamlakatimiz miqyosida olingan natijalarni o‘rganish asosida monitoring tizimining yuqori samara beruvchi parametrlar kombinatsiyasi aniqlandi.

Monitoring tizimi o‘zaro zamonaviy telekommunikatsiya tizimi orqali bog‘langan klaster shaklidagi- quyi bo‘g‘in va yuqori bo‘g‘in-ma’lumotlarni qayta ishslash markazidan iborat. Stansiyalar tarmog‘i server bilan birgalikda o‘tkazish quvvati 256 Kbit/s dan kam bo‘lmagan seysmoprognostik tizimni tashkil etadi.

Klaster O‘zR FA Seysmologiya instituti va Fizika-texnika instituti tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, u kuzatilayotgan parametrlar majmuasini boshqarish uning asosiy vazifasiga aylandi. Ma’lumotlarni yig‘ish, qayta ishslash, saqlash, birlamchi o‘lchov datchiklaridan ma’lumotlarni markazga yuborish uchun mo‘ljallangan. Klasterning o‘zi uch pog‘onali tuzilishga ega. Birinchi daraja seysmik xavfning informativ belgilarini fizikaviy holatini parametrlovchi geofizik va gidrofizik ko‘rsatkichlardan iborat. Ikkinci darajada signallarni qayta ishslash va ichki xotiraga qayd etish, keyinchalik iste’molchilarga ma’lumotlarni uzatish amalga oshiriladi. Uchinchi daraja-sanoat kompyuteri bo‘lib u registratorlardan ma’lumotlarni yig‘ish, arxivlash hamda qayta ishslash markaziga o‘tkazilishini ta’minlaydi (1-rasm).



1-rasm. O‘zR FA Seysmologiya instituti va Fizika-texnika instituti tomonidan ishlab chiqilgan klaster tizimining sxemasi

Geofizik maydonlarning ba’zi parametrlari monitoringi klaster markazi orqali boshqariladi. Klaster orqali bir vaqtning o‘zida 16 tagacha qurilmalarda 5, 10, 20, 30 yoki 60 daqiqalik intervalllar bilan o‘lchovlar o‘tkazilishi mumkin.

Klasterning funksional tuzilishi quyidagi bloklarni o‘z ichiga oladi. Elektrotellurik maydon o‘zgarishlarini o‘lhash qurilmasi, atmosfera elektr maydonining gradientini o‘lhash qurilmasi, yer osti suvlarining parametrlarini o‘lhash bloki.


Seysmogen tabiatli elektromagnit nurlanishlarining hosil bo‘lishi, olingan ma’lumotlarni qayta ishlash ko‘rsatib o‘tilgan. Shuningdek zilzilaning elektrotellurik darakchilarining namoyon bo‘lishi xususiyatlari, uning o‘zgarishlari tahlili, elektr-tellurik maydon(ETM) anomaliyalarining namoyon bo‘lishi yaqqol misollarda ko‘rsatib berilgan (1985 yilgi $M=5,6$ Qayroqqum zilzilasi; 1987 yilgi $M=5,7$ Oloy zilzilasi). Shuningdek mustaqil ishlaydigan elektromagnit nurlanishlarini raqamli qabul qilish uskunasi sifatida monitoring tizimida foydalaniadi.

Zilzilalarning cheklangan statistikasi, poligonlardagi stansiyalar sonining yetarli emasligi hozirgi bosqichda ETMning anomaliyalarining statistik-ehtimoliy xarakteristikalarini to‘liq baholay olmasligi ko‘rsatib o‘tilgan.


Geomagnit tadqiqotlar zilzilalarni prognozlashda keng qo‘llaniladi. Magnitonosfera observatoriyasida GSM-19T magnitometr tayanch punktida o‘rnatalgan (2-rasm).

Uskunaning o‘lhash diskretligi operator tomonidan 3 sekund yoki undan ortiq qilib belgilanadi. Serverda kunlik ma’lumotlarni onlayn kuzatish uchun veb interfeysi yaratilgan.

Yaratilgan “Magnetic data transmission GEM-19T” dasturiy ta’minotining algoritmi blok-sxema shaklida 3-rasmda keltirilgan.




2-rasm. Magnitometrning ulanish sxemasi



3-rasm. “Magnetic data transmission GEM-19T” dasturiy ta’minotining blok-sxema shaklidagi algoritmi

U serverga kelgan ma'lumotlarni real vaqtida 4-rasmda keltirilgan blok-sxema shaklidagi algoritmga asosan ma'lumot bazasida saqlaydi.



4-rasm. Ma'lumotlarni qabul qilish va saqlashning blok-sxema shaklidagi algoritmi

Hisoblashlar tadqiqot davomida ishlab chiqilgan ma'lumotlarni qayta ishlovchi “DataVisualizer” va “R” interaktiv dasturiy paketi bilan amalga oshiriladi.

Ma'lumotlar bazasidan ma'lumot olishni dasturlash uchun interfeys (API) ishlab chiqilgan. Ma'lumotlarni yaratilgan “DataVisualizer” dasturi orqali ham olsa bo'ladi.

“Magnetic data transmission GEM-19T” dasturiy ta’minot Windows operatsion tizimida ishlaydi. Dastur avtomatik ravishda ma’lumotlarni qayd etadi. Joriy ma’lumot fayli operator aralashuviziz hosil qilinadi. Dasturiy ta’minot magnit komponentasidan tashqari o’lchov aniqligini ham qayd etadi.

Seysmoprogностик monitoring тизимидаги xодимларнинг исхунини ошириш, осонлаштириш учун О‘zbekistonda биринчи маротаба геодинамик полигонларда о‘лчangan геофизик, seysmik, гидроgeoseysmologik va геодинамик параметрларни саqlash учун mijoz-server архитектурасини qо‘llovchi relyatsion ma’lumotlar bazasi (MB) yaratildi. Yaratilgan MBda 1941 - 2020 yillarda kuzatilgan геофизик, seysmik, гидроgeoseysmologik va геодинамик параметрлarning natijalari mavjud. Jami kuzatilgan параметрлар soni 653 tadan ortiq, kuzatishlar natijasida олинган о‘лчов natijalari soni 5 275 000 dan ortiq.

Oлинган ma’lumotlardan ilmiy tadqiqot ishlarida, zilzilalarni prognozlashda foydalanish mumkin.

Yuqori aniqlikda олинган geomagnit maydon kuzatuvlarining ma’lumotlarini inson omilisiz jamlash va saqlash zilzila darakchilarini aniqlash samaradorligini оширади. Tadqiqot jarayonida elektrotellurik, elektromagnit maydonlar va suvning fizik xossalarini avtomat tarzda o‘lchovchi qurilmalar, ularni ishlatuvchi, testlovchi dasturiy ta’minotlar ishlab chiqildi.

Dissertatsiyaning **«Zilzila darakchilarini qidirish va prognozlashda geofizikaviy axborot texnologiyalarini ishlab chiqish»** deb nomlangan uchinchi bobida zilzila darakchilarini aniqlashning fizikaviy asoslari, aniqlash algoritmlari, олинган ma’lumotlarni qayta ishlash, prognostik ma’lumotlar bazasi (MB)ni boshqarish hamda ma’lumotlar bazasi bilan ishlovchi dasturiy ta’minot, GPS kuzatuvlari natijalari to‘g‘risida ma’lumotlar berilgan. Shuningdek geologik-геофизик ma’lumotlarni yaratilgan algoritmlar va dasturiy ta’minotlardan foydalanib уларда zilzila darakchilarini qidirish natijalari yoritilgan.

Akademik M.A. Sadovskiy boshchiligidagi katta hajmdagi statistik ma’lumotlarni tahlili asosida seysmik o‘choq hajmi bilan zilzilaning tayyorlanish vaqtiga va energiyasi orasidagi quyidagi bog‘lanishlarni aniqlashdi. Xususan: $lg\tau(E, erg)=0.295K-5$, τ - zilzilaning tayyorlanish vaqtiga, yillar; $E=10^3V$; E – zilzila energiyasi, erg, K -zilzila klassi, V - hajm, sm^3 ; bu yerda: $LgE=1.5Ms+11.8$; $V=(L*W)^{1.5}$; L - o‘choq uzunligi, sm, W - o‘choq kengligi sm da, $L/W=2,9$; $lg(L/W)=0,14Ms-0,58$; M - zilzila magnitudasi.

Zilzila darakchilarini izlashning birinchi bosqichi-seysmik faol zonalarni aniqlash учун O‘zbekiston va unga yondosh hududlardagi seysmoaktiv zonalaridagi seysmotektonik holatni baholashdan iborat.

Zilzila tayyorlanishining ishlab chiqilgan modellarida asosiy omil-tog‘ jinslarining konsolidatsiyalashgan massivining anomal deformatsiyalari hisoblanadi. Zilzilalarni prognozlashning aniq bir matematik ifoda ko‘rinishda ko‘rsatish imkonи yo‘qligi учун uni prognozlash masalasining muammolari bilan bog‘liq shakllangan bosqichli algoritmga ega.

Seysmoprogностик баҳолашнинг исончлилигини та’минлаш учун геофизик, геодинамик ва гидрогеосейсмологик параметрлар маҷмумаларининг о‘згаришларини кузатиш исhlari olib boriladi. Ularni o‘lchash usullari, o‘lchov materiallarining tasvirlanishi, o‘lchash intervallaridagi farqlar ularni solishtirishni qiyinlashtiradi. Tahlil qilinayotgan qatorlarda bo‘lishi mumkin bo‘lgan uzilishlarni tiklash, qatorlardagi xatolarni aniqlash va statsionar qatorning normal taqsimlanganligini tekshirish “R” tizimida amalga oshirilishi keltirilgan.

Kuzatilayotgan параметрлар natijalari MB da saqlanadi. MBni boshqarish tizimi ma’lumotlarni saqlash tartib qoidalarini optimallashtiradi, foydalanuvchilarga qulay sharoitlar yaratadi. Relyatsion MB boshqarish tizimi kuzatuv ma’lumotlarining elektron MB va uni boshqaruvchi veb interfeysdan tashkil topgan. Kuzatuv natijalari relyatsion shaklda saqlanadi.

MB геофизик ва гидрогеосейсмологик кузатувлар natijalariga qo‘sishimcha ravishda stansiylar, sodir bo‘lgan zilzila, datchiklar, kuzatuv o‘lchovlarining vaqt intervallari, saqlangan ma’lumotlar hajmi, foydalanuvchilar ro‘yxati va fayllar bilan ishlovchi(FTP) serveri bilan ishlash учун zaruriy ma’lumotlarni saqlaydi. Kelib tushgan ma’lumotlar mavjud 38 ta relyatsion jadvallarda saqlanadi.

Ma’lumotlar bazasida jadvallardan tashqari ularni saqlash, qayta ishslash va saralash учун qo‘sishimcha protseduralar, triggerlar, ko‘rinishlar yaratilgan.


Foydalanuvchi veb interfeysining soddaligi-tizimning asosiy xususiyatlaridan hisoblanadi. Veb interfeys “Java” dasturlash tilida yaratildi.

FTP serverga kelgan ma’lumotlarni ma’lumotlar bazasida saqlash учун “ftp-to-db” dasturi ishlab chiqildi. Bu dasturning ishlashi blok-sxema shaklidagi algoritmi 5-rasmda keltirilgan.

Yaratilgan “DataVisualizer” dasturining ishlatilishi o‘qish, saqlash va DBASE III formatida ma’lumotlarni eksportida, MB da mavjud informatsiyalarni hisoblashda, yuqoridagi formatda bir necha ma’lumotlarni bирgalikda eksport qilishda, MB dagi parametrlearning sutkalik, doimiy tashkil etuvchilarini filtrlashda, foydalanuvchilar учун qayta ishlangan ma’lumotlarga kirishga imkonи borlar учун ikkilamchi MB da saqlash, saqlangan ma’lumotlarning yoki diskretlashni talab qiladigan intervaligacha qayta formatlab keyinchalik ikkilamchi bazada saqlash imkoniyatiga ega.

MB tuzilishiga qo‘sishimcha funktsiyalarni tadbiq qilish yangi kuzatuv punktlari tashkil etilganda, seysmoprogностик monitoring параметрларининг кузатиш usuli yoki o‘lchash chastotasi o‘zgarishlarida talab qilinadi.

Global sun’iy yo‘ldosh navigatsiya tizimining ishlash mohiyati uchta funktsional tizimdan iborat bo‘lib ular koinotda joylashgan tizim, Yer yuzasida joylashgan tizim va GPS ma’lumotlaridan foydalanuvchi tizimining tuzilish segmentlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar keltirilgan.



5-rasm. FTP serverdan ma'lumotlarni o'qib MBga saqlovchi jarayonning bloksxema shaklidagi algoritmi

GPS yordamida koordinatalarni olishning bir necha xil usullari mavjud. Umuman aytganda usullar uch sinfga bo'linishi mumkin.

1. Avtonom navigatsiya-yagona (avtonom) qabul qilgich ishlatiladi. Turistlar, qirg'oqdan uzoq kemalar navigatsiyasi va harbiylar tomonidan ishlatiladi. Fuqaro iste'molchilar uchun aniqlik 100 metr, harbiylar uchun 20 metrga yaqin.

2. Differentsial koordinatalar yoki DGPS koordinatalarini 0.5-5 metr aniqlikda olish imkonini beradi.

3. Geodezik o'lchovlar qurilish texnikasini boshqarishda qo'llaniladi. Differentsial faza o'lchashlari 0.5- 20 mm aniqlikga erishishni ta'minlaydi.

Kuzatuv punktining WGS84 tizimida koordinatasini aniqlash uchun sun'iy yo'ldoshdan (SY) yuborilgan radio to'lqinni chiqish vaqtini (t') va qurilma qabul qilgan vaqtini (T) ni qabul qiluvchi qurilma yozib oladi va quyidagi formula asosida SYgacha bo'lgan masofa aniqlanadi.

$$S=(t-t') \cdot S; S \approx 300\ 000 \text{ km/s} \quad (1)$$

Koordinatalar aniqligiga ta'sir qiluvchi quyidagi faktorlarni hisobga olish kerak:

1. Ionosfera va atmosferada ushlanib qolishlari.
2. Yo'ldosh va qabul qilgich soatlarining xatosi.
3. Takror qaytarilish.
4. Aniqlikning geometrik pasayishi.
5. Tanlangan kiruv (S/A).
6. Kod ma'lumotlarini shifrlash -Anti Spoofing (A-S).

Ionosfera elektron zichligi bilan xarakterlanadi. Uning dinamikasi sutka davomida turli balandliklarda turlicha, Quyoshning ta'sirida o'zgaradi.

Zilzilalarni prognozlash maqsadida Yangibozor va Farg'onadagi stansiyalarga o'rnatilgan yuqori aniqlikda o'lchovchi ikki chastotali Leica GPS1200 GPS qabul qilgich qurilmasi xarakteristikasi ishlash printsipi keltirilgan.

Yangibozorda o'rnatilgan GPS qabul qilgichi orqali sutkalik va 6 oy davomida o'lchanigan ma'lumotlarni qayta ishlab kuzatuv nuqtasining yuqori aniqlikdagi qiymatlari tahlil qilindi. Ma'lumotlarning gorizontal E va N komponentalarida o'rtacha kvadratik chetlanish 4 mm gacha vertikal H komponentasida 8 mm gachaligi aniqlandi. Spektral tahlilda 6, 8, 12 va 24,2 soatlik davriy komponentalari borligi aniqlandi.

Toshkent geodinamik poligonida mavjud GPS stansiyalarining ma'lumotlarini GAMIT-GLOBK dasturi orqali qayta ishlab stansiyalarining yillik o'rtacha gorizontal va vertikal harakatlarining tezligi jadvali olindi (jadval).

1-jadval

2021-2022 yillarda Toshkentoldi hududi va uning atrofida joylashgan, doimiy kuzatuvlar olib boriluvchi GPS stansiyalarining o'lchov natijalari

Uzunlik	Kenglik	E _{vel}	N _{vel}	H _{vel}	Kuzatuv nuqtasi
gradus	gradus	mm/yil	mm/yil	mm/yil	
71,78	40,37	-9,14	25,24	0,20	FGNA
71,72	41,20	-8,32	17,71	-4,47	YANN
69,58	41,30	-10,30	22,28	0,50	YNBZ
69,59	41,50	-9,32	21,09	0,78	CHIR
69,29	41,32	-4,5	22,39	12,18	TASH*
69,27	41,33	-10,04	19,25	-2,15	MAGK
69,04	41,11	-8,96	17,78	-0,93	YAN1
68,76	40,50	-9,51	19,25	-2,08	GULD
68,69	40,82	-9,98	28,69	7,75	SIRD
66,88	39,13	-5,21	20,95	9,12	KIT3*
68,03	40,53	-10,21	16,84	3,44	DUST

Bunda E_{vel} - sharqiy tashkil etuvchining yillik gorizontal harakati bu Grinvich 0° meridiandan GPS stansiyasigacha bo'lgan masofalar farqi, N_{vel} - shimoliy tashkil etuvchining yillik gorizontal harakati esa Yerning ekvator chizig'idan GPS stansiyasigacha bo'lgan masofalar farqi, H_{vel} - punktlarning yillik vertikal harakatlari, ya'ni Xalqaro yer osti tayanch hisoblash tizimi (International Terrestrial Reference Frame 2014) bo'yicha balandlik qiymatlari.


Zilzilaga tayyorgarlikning ma'lum modellarida seysmogen manba sifatida asosan endogen jarayonlar hisobga olingani va gravitatsion maydon hisobga olinmaganligi uning aniqligini kamaytiradi.

Gravitatsion manbalar hisobiga yer osti suvlaridagi o'zgarishlarni aniqlash va zilzila tayyorgarlik zonasi seysmogen jarayonlarini kuzatish mumkin. Yer osti suvlaridagi CO₂ parametrlarining sutkalik fon tebranishlariga oid spektral tahlil ularning ikki-to'rt haftalik davriy komponentalarni o'z ichiga olishini ko'rsatdi. Bu holat Oyning gravitatsion oqimlarni hosil qilish qobiliyati bilan izohlanadi. Ular yer osti suvlarining tahlil qilingan barcha parametrlari bo'yicha bir xil intensivlikda namoyon bo'ladi.

Yer yuzasining og'ishi bo'yicha olib borilgan kuzatuvlar natijalarida, spektral tahlil usuli yordamida davriy tarkibiy qismlarning vaqt bo'yicha o'zgarishi aniqlangan. Ushbu o'zgarishlar zilziladan oldin kuchayib, zilziladan keyin kamaygan.

Shuningdek Kitob stansiyasida kuzatilgan GPS ma'lumotlarining sharqiy komponentasini ishlab chiqilgan algoritmlar va dasturiy ta'minotlar bilan tahlil qilindi (6-rasm).

Tahlillar shuni ko'rsatdiki zilziladan oldin kuchaygan davriy komponentalar bo'yicha ma'lumotlarni filtrlash aynan qidirilayotgan darakchini aniqlash imkonini beradi.



KIT3 E - Kitob stansiyasida kuzatilgan sharqiy komponentasining qiymatlari, F40 - 40 haftalik filtrlash natijasi, F20 - 20 haftalik filtrlash natijasi, F10 - 10 haftalik filtrlash natijasi.

6-rasm. Kitob stansiyasining GIPSYda hisoblangan sharqiy komponentasining variatsiyalari va ishlab chiqilgan algoritmlarga binoan qayta ishlangan ma'lumotlari

XULOSA

1. Zilzila darakchilarini aniqlashda, zilzilalarni prognozlashda, katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlashda, tahlil qilishda inson omilini kamaytirish uchun zamonaviy axborot texnologiyalari yechimlaridan va raqamli qurilmalaridan hamda sun'iy intellektdan keng foydalanish zarurligi keltirildi.

2. Seysmoprogностик monitoring tarmog'i uchun axborot ta'minotini amalga oshiruvchi sxemali modeli taklif qilindi va shu model asosida ishlovchi amaliy va tizimli dasturiy ta'minotlar, algoritmlar hamda ma'lumotlar bazalari yaratilib avtomatlashgan axborot tizimi shakllantirildi.

3. Geofizik, geodinamik va gidrogeoseysmologik parametrlardan zilzila darakchilarini aniqlovchi algoritm va dasturiy ta'minotlar yaratildi. Natijada

yaratilgan algoritm va dasturiy ta'minotlar kuchli zilzilalarni tezkor prognozlash imkonini beradi.

4. Kuzatilayotgan parametrlarda zilzila darakchilarini namoyon bo'ladigan chastotalarni aniqlash zilzilalarni prognozlash aniqligini oshiradi.
5. Uzoq, o'rta va qisqa muddatli zilzila darakchilarini qidirishda har bir vaqt uchun chastotalarini aniqlash zarurligi ko'rsatildi.
6. Sun'iy yo'ldosh navigatsiya tizimining yuqori aniqlikdagi ma'lumotlarini zilzilalarni prognozlashda qo'llash istiqbolliligi ko'rsatildi.
7. Ishlab chiqilgan EMI qurilmalarini qurilma joylashgan hududning geologik va geofizik xususiyatlariga moslashtirish zarurligi ko'rsatildi.
8. ETM qurilmasini zilzilalarni prognozlash yo'lida qo'llashni kengaytirish maqsadga muvofiq.
9. Zilzila darakchilarini aniqlash uchun yaratilgan algoritmlar zilzila darakchilarini bir xil modelga keltirishi zilzilalarni prognozlash uchun sun'iy intellekt modellarini oqitishda va foydalanishda samaradorlikni oshiradi.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ НА ОСНОВЕ НУЧНОГО СОВЕТА
DSC.02/30.10.2019.GM/FM.97.01
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ
ПРИ ИНСТИТУТЕ СЕЙСМОЛОГИИ**

ИНСТИТУТ СЕЙСМОЛОГИИ

САДИРОВ ФЕРУЗ ХАСАНОВИЧ

**РАЗРАБОТКА ГЕОФИЗИЧЕСКИХ ИНФОРМАЦИОННЫХ
ТЕХНОЛОГИЙ ПРИ ПРОГНОЗИРОВАНИИ ЗЕМЛЕТРЯСЕНИЙ**

04.00.06 - Геофизика. Геофизические методы поиска полезных ископаемых

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам**

Ташкент-2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под номером В2024.1.PhD/T4405.

Диссертация выполнена в Институте сейсмологии.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.seismos.uz) и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель

Хусомиддин Сабриддин Самарович
доктор физико-математических наук

Официальные оппоненты:

Джуманов Жамолжон Худайкулович
доктор технических наук

Кучкаров Каҳрамон Исаилович
доктор философии (PhD) по физико-
математическим наукам

Ведущая организация:

Национальный университет Узбекистана

Защита диссертации состоится «9» декабря 2025 г. в 10⁰⁰ часов на заседании Разового Научного совета на основе Научного совета DSc.02/30.12.2019.GM/FM.97.01 при Институте сейсмологии (Адрес: 100128, г. Ташкент, ул. Зулфияхоним, 3. Тел.: (99871) 241-51-70, E-mail: seismologiya@seismos.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Института сейсмологии (регистрационный номер №1159) (Адрес: 100128, г. Ташкент, ул. Зулфияхоним, 3. Тел.: (99871) 241-51-70, E-mail: seismologiya@seismos.uz).

Автореферат диссертации разослан «25» ноября 2025 года.

(реестр протокола рассылки № 18 от «25» ноября 2025 года)



С.Х. Максудов

Председатель разового научного совета
при научном совете по присуждению ученых степеней,
д.ф.-м.н., профессор

З.Ф. Шукров

Учёный секретарь разового научного совета
при научном совете по присуждению ученых степеней,
доктор философии (PhD) по г.-м.н.

В.А. Исмаилов

Председатель научного семинара при разовом
научном совете при научном совете
по присуждению ученых степеней,
д.г.-м.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и необходимость темы диссертации. В мировой практике вопросы прогноза землетрясений, оценки сейсмической опасности и снижения последствий сейсмических катастроф имеют актуальное значение. В частности, особое внимание уделяется исследованию физической природы геофизических аномалий, возникающих перед землетрясениями, оценке напряженно-деформационного состояния земной коры, а также изучению закономерностей проявления сейсмических процессов в геофизических полях. Создание современных онлайн-систем мониторинга и информационных технологий, обеспечивающих наблюдение и анализ геолого-геофизических параметров в режиме реального времени, позволяет совершенствовать исследования по долгосрочному, среднесрочному и краткосрочному прогнозированию землетрясений.

В мировом масштабе, в частности в развитых странах, как США, Японии, Китае, России, Италии, Германии для прогнозирования землетрясений проводятся исследования по использованию геолого-геофизических систем наблюдений, мониторингу сейсмических процессов в режиме реального времени, по моделированию деформационных процессов земной коры. Прогнозные системы, созданные на основе современных информационных технологий, используются для оперативного оповещения населения о надвигающейся угрозе, организации эвакуационных мероприятий, а также обеспечения защиты объектов инфраструктуры. В настоящее время особое внимание уделяется созданию цифровых кластеров мониторинга, алгоритмов обработки данных и программных модулей прогнозирования.

Большая часть территории Республики Узбекистан расположена в сейсмоактивных зонах, поэтому уменьшение экономических и социальных рисков, связанных с возможными сильными землетрясениями, является одной из актуальных задач при освоении территорий. Проводятся исследования в республиканском масштабе по выявлению долгосрочных, среднесрочных и краткосрочных предвестников землетрясений, анализируются пространственно-временные изменения параметров геофизических полей, модернизируются сети сейсмопрогностических наблюдений, внедряются современные цифровые системы мониторинга. В Указе Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № УП-60 «О Стратегии развития нового Узбекистана на 2022–2026 годы» среди прочего обозначены задачи по «...охране экологии и окружающей среды, улучшению экологической обстановки в городах и районах...»¹. В связи с этим развитие геофизических информационных технологий в прогнозировании землетрясений приобретает особую значимость.

¹ Указ Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № УП-60 «О стратегии развития нового Узбекистана на 2022–2026 годы»

Данная диссертационная работа в определенной степени служит реализации задач, определенных Постановлением Президента Республики Узбекистан от 9 августа 2017 года № ПП-3190 «О мерах по совершенствованию проведения научных исследований в области сейсмологии, сейсмостойкого строительства и сейсмической безопасности населения и территории Республики Узбекистан», Постановлением Президента Республики Узбекистан от 30 июля 2020 года № ПП-4794 «О мерах по коренному совершенствованию системы обеспечения сейсмической безопасности населения и территории Республики Узбекистан», Постановлением Президента Республики Узбекистан от 16 мая 2023 года №ПП-158 «О дополнительных мерах по дальнейшему совершенствованию системы обеспечения сейсмической безопасности населения и территории Республики Узбекистан» и другими нормативными правовыми актами, касающимися данной деятельности.

